



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 4-may, payshanba,

52 (23.773)-son

# Zarafshon



## PREZIDENT FARMONIGA KO'RA

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 2-maydagi "Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini va nogironlarining har biriga 18 000 000 (o'n sakkiz million) so'm miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilandi.



## O'ZBEKISTONNING YEVROPADAGI YIRIK HAMKORI

Germaniya va O'zbekiston. Bu ikki mamlakatning hamkorligi uzoq tarixga borib taqalmasa-da, o'zaro ishonch, hurmat va manfaatlari kelishuvlarning to'g'riligi bois istiqbolda ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratmoqda.

Germaniya dunyodagi eng yirik iqtisodiyotga eng davlatlardan biri sifatida jadal rivojlanayotgan O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalariga faol investitsiya kiritmoqda. Germaniya bugun mammalatimizning qishloq xo'jaligi sohasida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, resurslarni tejaydigdan o'g'it, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosidlorigi va sifatini oshirish, o'simliklarning barqarorligi va himoyasi, yeri osti suvlari, o'simlik navlarnini iqlimlashtirish, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish loyihalarini amalga oshirmoqda.

Energetika sohasida uskunalar va butlovchi qismlar ishlab chiqarish, kichik GESlar qurish va ularidan foydalanshan, vodorod enerjisi soylahilar, O'zbekistonda gaz uzatish tizimini va gazni qayta ishlash zavodlarini avtomatlashtirish, elektr va mashinasozlikda "O'zeltexsanoat" AJ va Germaniya elektro-tehnika va elektronika ishlab chiqaruvchilarni assotsiatsiyasi o'rtasida hamkorlik o'rnatilgan. Maishiy texnika va elektr jihozlari, elektrobuslar, konchiliy sananoati uchun texnika va uskunalar ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yilgan.

Hozirda O'zbekistonda Germaniya kapitalida 200 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. 2021-yilda Germaniyadan kiritilgan investitsiya hajmi 972,5 million dollarni tashkil etdi.

2022-yilda "Knauf", "Papenburg", "Falk

Porsche" singari yangi zavodlar ishga tushirildi. Yaqin istiqbolda Germaniyaning "MAN" konserni bilan yuk avtomobilari, "Claas" va "Lemken" kompaniyalari bilan qishloq xo'jaligi texnasi ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yildi. 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda Germaniya kapitali ishtirotida 198 ta korxona faoliyat ko'sratmoqda (xorijiy kapital ishtirotidagi korxonalar umumiy sonining 1,6 foizi). Joriy ishlidan buyon 10 ta korxona tashkil etildi.

Xususan, viloyatimizda Germaniya kompaniyalarining kapitali ishtirotida 9 ta qo'shma, 4 ta xorijiy korxona faoliyat yuritmoqda.

Jumlahdan, Oqdaryo tumanida "ZARAF-SHON LOHMANN PARRANDA" korxonasi tomonidan parrandachilik fermasi tashkil etilgan. "SAM TEXNO KOMPONENT" qo'shma korxonasida avtobuslarga butlovchi qismlar ishlab chiqarilmoqda. Payariq tumanidagi "O'ZBEGIM AGRO O'ZBEKISTON-GERMANYA" korxonasida sut mahsulotlarini qayta ishlash, Past Darg'om tumanidagi "AGRO CONTINENT GARDEN" MCHJda bog'dorchilikni rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Jomboy tumanidagi "MAN AUTO" korxonasida avtobus va yuk avtomobilari ishlab chiqarilmoqda.

## MERGANCHADAGI "YANGI O'ZBEKISTON" da NIMA GAP?

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatlari uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurish maqsadida Urgut tumanida ham "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi qizg'in davom etmoqda.

Yaqinda davlatimiz rahbari mazkur massivlarning qurilishi susiyat ketganligi, aholi uy-joylari o'z vaqtida egalariga topshirilmayotganligini qattiq tanqid qilgan edi.

Jumlahdan, Urgutdagi Mergancha massivida qad rostlayotgan ko'p qavatlari uylar, ijtimoiy soha obyektlari, ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarining o'z vaqtida qurib foydalanshiga topshirilmayotganligi qurilish jarayonlariga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Ko'sh, yangi massivda qurilishning sustashishiga nima sabab bo'lmoqda? Aholi nima uchun yangi uy-joylarga ko'chib o'tmayapti?

(Davomi 2-sahifada) >>

Prezident huzuridagi tadbirdorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) tomonidan axborot va ommaviy kommunikatsiya boshqarmasi bilan hamkorlikda tadbirdorlarga yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishish maqsadida "Urgut" erkin iqtisodiy zonasiga Sazag' on massivida OAV yakillari uchun press-tur tashkil etildi.

## METALL KONSTRUKSIYALAR

Yaponiya, BAA, Singapurga eksport qilinmoqda

- Biznes-ombudsmanning viloyatdagi xodimlariga yil ishlidan buyon 242 ta murojaat kelib tushgan va ularning 158 tasi qanoatlanirildi, 6 tasi tegishli idoralarga yuborildi, 58 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi va 20 tasi o'rganilmoqda, - deydi Biznes-ombudsman vakili Nodir Namozov. - Murojaatlarning aksariyati yer va bino ajratish, kredit, soliqqa doir masalar va tekshiruvlarning qonuniyligi, infratuzilmani yaxshilash bilan bog'liq. Murojaatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash yuzasidan 105 ta ta'sir choralar qo'llanildi.

Dastlabki manzilimiz iqtisodiy zona tarkibidagi "MIRAN-KUL CONSTRUCTION MATERIALS LTD" MCHJ bo'ldi. Bu yerda shit korpuslari, metall shkaflar, metaldan yasaladigan boshqa turdag'i turli xil mahsulotlar, kabel yo'laklari, shamollatish tizimlari, binoning tashqi, poydevor va katta o'chamagi yengil konstruksiyalari soyabonlar va boshqa turdag'i mahsulotlar ishlab chiqariladi.

- 2018-yilda 10 nafr ischlari bilan metalga ishllov berishni yo'lg'a qo'yib, xorijdan import qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni boshladik, - deydi korxona rahbari Nuriddin Hamroqulov. - Hozirda ishchilar soni 160 nafarga yetdi va 2022-yil yakuni bilan ishlab chiqarish ha-jmi 6 barobarga oshdi. Mahsulotimizning 70 foizi eksport qilinadi.



Birgina o'tgan yil korxonamizda ishlab chiqarilgan 18 million dollarlik mahsulotni Yaponiya, BAA, Singapur kabi xorij bozorlariga sotdik.

Hududagi yana bir yirik korxona - "TESPACK INVESTMENT" MCHJda zamonyavi maishiy texnika vositalari, aluminij radiatorlar ishlab chiqarilmoqda. 3,3 million dollar sarmoya yo'naltirilgan korxonada 50 nafr ishchi yiliga 330 ming dona aluminij radiator, 10 ming dona zamonaviy maishiy texnika ishlab chiqariladi.

Yana bir iqtisodli korxona - "SCHELKOVO AGRO-HIM-O'ZBEKISTON" qo'shma korxonasi tomonidan o'simliklarni begona o't va hasharotlardan kimyoiy himoyalash vositalari ishlab chiqarish rejalastrtilring. Qiymati 22 million dollarlik loyiha xorijiy sarmoya asosida amalga oshiriladi. Joriy yilning ikkinchi yarmida ishga tushirilishi rejalastrtilgan korxonada yiliga 120 ming litr inseksid, fungitsid, urug' dezinfektantlari, 60 ming litr rodensidlar, 58 ming litr defoliant, 62 ming litr o'simlikni o'stiruvchi reguluatorlar kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi va 200 kishi ish o'rniiga ega bo'ladi. O'rta Osiyoda yagona hisoblangan bu korxona mahsulotining 70 foizi eksport qilinadi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Sharof Rashidov nomidagi Samargand davlat universiteti kimyo fakultetida Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar nomidagi zamonaviy analiz usullari ilmiy laboratoriyaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Professor Aziz Sanjar AQShda yashab, ijod etuvchi mashhur turk biokimyogaridir.

AQShdagi Shimoliy Karolina universitetida faoliyat ko'sratayotgan professor oxirgi 20 yilda saraton bilan zararlangan hujayraning DNK tizimini tuzatishning biokimyoiv mexanizmlarini ishlab chiqqan va ushu tadqiqoti uchun 2015-yilda kimyo fanlari bo'yicha Nobel mukofotiga loyiq ko'rligani.

- Laboratoriya energodispersion rentgen fluorescent spektrometr, elektron yutilish spektrofotometri, kukan rentgen difraktometri kabi sakkil turdag'i zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan, - dedi Samargand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov. - Ilmiy laboratoriya xalq xo'jaligining kimyo, farmatsiyatka, tibbiyot, oziq-ovqat sanoati, biologik tadqiqotlar, konchilik kabi sohalarida tadqiqotlar olib borish

## NOBEL MUKOFOTI SOHIBI NOMIDAGI ILMIY LABORATORIYA OCHILDI



imkoniyati mavjud.

Shuningdek, mehmonlar molekulyar bioteknologiyalar va zamonaviy botanika asoslarini hamda vivariy, biofiziologik, biokimyoiv tadqiqotlar ilmiy laboratoriylarini bilan tanishdi.

Tadborda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonov, Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar, oliy ta'lim muassasalarini rektorlari va professor-o'qituvchilar qatnashdi.

X.ERNAZAROVA.



## SAMARQANDDA ILK BOR

Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand viloyat filialida ilk bor lapor-raskopik usulda o'ng tomonloma adrenalektomiya jarrohlik amaliyoti bajarildi.

Keyingi yillarda respublikamizda endokrin kasalliklarni erta aniqlash va dövalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi neyroendokrinologiya va neyroxiyurgeniya laboratoriyasida Kushing sindromi bo'yicha respublika miyosida qator ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan birga, zamonaviy tibbiyot yutuqlariga asoslan-

gan samarali dövalash usullari amaliyotga joriy etilmoqda.

- Itsenko-Kushing sindromi kam uchrashidigan, og'ir endokrinologik kasallik bo'lib, bemorlarda yurak-qon tomir, tayanch-harakat tizimlariда jiddiy asosatlarga sabab bo'ladi, - deydi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filiali bosh vrachi Gulzoda Negmatova. - Tashxislash va dövalashda murakkabliklar sabab bemorlar ko'pincha mutaxassisiga murojat qilguncha asosatlar rivojlanib, bemorlar hayot sifati pasayishi kuzatildi. Endilikda Samarqanda yo'lg'a qo'yilgan ushu yuqori texnologik amaliyot endokrin kasalliklari bilan bemorlarning uzog'ini yaqin qilish, nogironlik va erta o'limning oldini olish uchun qo'yilgan muhim qadamdir.

## Firibgarlar uch oyda bank kartalaridan

**4 MILLIARD SO'M  
"YECHIB OLGAN"**

Viloyatda "Cyber Week" nomi ostidagi "Kiber makonda sodir etiladigan jinoyat-larga qarshi kurashish haftaligi" doirasida targ'ibot tadbirlari davom etmoqda.



Samarqand shahridagi Yoshlar markazida yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, boshqarmasing tuman va shahar bo'limlari mas'ullari ishtiroyda o'tkazilgan tadbirda IIV tezkor-qidiruv departamenti kiberxavfsizlik markazi hamda markazning viloyat bo'limi mas'ullari yig'ilganlarga kiberinoyat turlari, keyingi vaqtida jinoyatchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan firibgarlik shakllari, ulardan himoyalish omillari haqida tushuncha berdi.

- Viloyatda joriy yilning dastlabki uch oyida firibgarlar tomonidan fuqarolarning bank kartasidan 4 milliard so'mdan ziyod pul mablag'larini talon-tarjo qilinadi, - dedi Ichki ishlar vazirligi tezkor qidiruv departamenti kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimi Lochinbek Atoyev. - Aldov qurboni bo'layotganlarning aksariyati 19-35 yoshdagi fuqarolar bo'lib, o'tgan davr mobaynida ular tomonidan 400 ga yaqin ariza kelib tushgan.

Ushbu firibgarlik jinoyatlari olti usulda - telefon qo'ng'iroqlarida to'lov tashkilotlari ("Clik" va boshqalar) yoki bank xodimi sifatida "SMS kodni olish", ijtimoiy tarmoqlar yoki "OLX" savdo platformasida "sotuvchi" yoki "xaridor" sifatida aldash yo'li bilan, Umra uchun to'plagan pullarini tasdiqlovchi kodni qo'liga kirish orqali, jabranchigicha noma'lum sharoitda yordam berish, moddiy yordam, onlayn kredit, yutuqli o'yin g'olibni kabi soxta alvdov havolalar hamda soxta onlaysiz birja va treyding orqali amalga oshirilgan.

Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida ham targ'ibot tadbirini bo'lib o'tdi.

- Joriy yilning o'tgan vaqtida viloyatimizda 70 dan ortiq shu turdag'i jinoyat aniqlandi, - deydi IIIV tezkor-qidiruv departamenti kiberxavfsizlik markazi viloyat bo'limi mas'ul xodimi Azamat Yo'idoshev. - Bir muddat oldin teleogramm messengerlerida fuqarolarning shaxsий ma'lumatlarini egalab olish shaxsiga bog'liq firibgarlik ham shular jumlasidir. O'rganishlarimiz davomida bu kabi jinoyatlarning asosiy qismi xorijdan turib boshqarilayotgani ma'lum bo'lmoqda. Bu esa ularni fosh qilishni yanada murakkablashtiradi. Shu bois bugun oldimizda turgan asosiy vazifa avvalo, fuqarolarning kiber tahdidlardan ogoohlagini oshirish.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Massiv qurilishiga tumanning Kamangaron mahallasidan qariyb 40 hektar yer maydoni ajratilgan bo'lib, 4 yil davomida 2916 ta xonadonga mo'ljallangan 58 ta ko'p qavatlari uy, 2 ta maktab, 4 ta bolalar bog'chasi hamda olibaylik qurilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, maishiy xizmat ko'rsatish uyi, o'yinchoh, mehmonxonasi, kinoteatr, EKO bozor, IT park, hammon va kimyoiy tozalash sexi, dorixona va boshqa obyektlar qurilishi ko'zda tutilgan. O'tgan yili 18 ta 5 va 9 qavatlari uy hamda bittatadan maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi qurildi.

- Yangi massivdagi qurilish ishlarning kechikishiga sabab shu hudduda ayrim fuqarolar tomonidan qurilgan 16 ta noqonuniy binolar o'z vaqtida buzib olinmaganligi bo'ldi, - deydi tuman hokimi o'rnbosari Sh.Aliqulov. - Ayni vaqtida qonuniy hujjatlari bo'lmagan uy-joylar o'z egalari tomonidan buzib olindi. Shu sabab aukson jarayoni ham ikki oyga cho'zilib ketdi. Barcha qurilish korxonalarini belgilangan hududlarda uy-joylar qurilishi jadal sur'atlarda davom ettilishmoqda. Joriy yilda ham 908 ta xonadoni 9, 12, 16 qavatlari 17 ta turarjoy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Hozirda 2024-yilda qurilishi rejalashtirilgan yana 22 ta ko'p qavatlari turarjoy binolari uchun yer maydonlari aukson savdo maydonchasisiga joylashtirilgan.

Jumladan, "Bright Future Textile" MCHJ quruvchilari tomonidan 270 xonadoni 5 ta ko'p qavatlari uyning barchasida so'nggi ta'mirlash-pardozlash ishlari olib borilmoqda.

- Ikkita 9 qavatlari uyning qurilishini allaqachon tugallaganmiz, biroq Xitoy davlatidan zamonaviy littlarni olib kelishda paydo bo'lgan muammolar tufayli ishimiz oldinga siljimay turibdi, - deydi mazkuz korxona ish boshqaruvchisi Nodir Ahmadjonov. - Lift o'rnatishni o'z zimmasiga olgan tashkilotning aybi bilan uylarni o'z egalariga topshirish muddati ortga surilyapti. Qolgan barcha ishlamiz o'z vaqtida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, "Abdullayeva Gulshan Bahrullayevna" xususiy korxonasi ham 216 xonadoni 4 ta ko'p qavatlari uyni qurishni o'z zimmasiga olgan. Ayni vaqtida 2 ta uyning poydevori uchun handaqlar qazilib, fundament beton qorish ishlari olib borilmoqda. Korxona qoshida kuniga 100 kub meton aralashmasi ishlab chiqarishga mo'ljallangan kichik korxona ishlab turibdi.

Massivda yana boshqa qurilish korxonalarining 500 nafarga yaqin quruvchilari uy-joylar qurilishini davom ettilishmoqda.

O'tgan yili "Kamila" xususiy korxonasi tomonidan qurilishi bosh-

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi hamda "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'iga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlariga ko'ra, mamlakatimizda ma'muriy islohotlar amalga oshirilmoqda. Viloyat matbuot uyida kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i Isroi Jabborov ishtirokida o'tgan matbuot anjumanida boshqarma zimmasidagi vazifalar xususida ma'lumot berildi.**

## Matbuot

### anjumanida jurnalist ishini "bitirib oldi"



- Endilikda viloyat bandlik bosh boshqarmasi, mahalla va nuroniyarni qo'llab-quvvatlash, mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish, oila va xotin-qizlar boshqarmalarini, tibbyi-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi hamda ijtosidiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasining (kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi) vazifa va funksiyalarini birlashtirgan holda kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tashkil etildi, - deydi I.Jabborov. - Boshqarma to'rt bosqichli tizimda faoliyat ko'rsatadi. Hali birorta vazirlik ushbu bosqichlarning barchasini o'zida jamlamagan. Ya'ni, faoliyatimiz to'g'ridan-to'g'ri mahalla, xonadongacha bo'lgan ja-rayonni qamrab olib, masalani joyida hal qilish tizimiga qurilgan. Deylik, ilgari oilaga yordam tashkil qilish bir nechta boshqarmalar ishtirokida o'tib, ushbu yordamning xonadongacha yetib borishida ma'lum hujjatlari va boshqa majburiyatlar tuyfayli.

kechikishiga yo'l qo'yilgan holatlar bo'lgan. Endilikda oila a'zolariga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga yordam ko'rsatish, u nogironlik masalasida bo'la-dimi, ishga joylashish yoki tadbirkorlik uchun yordammi, barchasida bitta taskhilot tomonidan amalga oshiriladi.

Aytish lozimki, boshqarmalarining birlashishiha faqatgina bir-birini takrorlaydigan ishni amalga oshiradigan shtatlar qisqartirildi.

Matbuot anjumanini avtomoda "Samarkandskiy vestnik" gazetasi muxbiri Y.Rustamov tahririyatiga tushgan shikoyat, ya'ni Jomboy tumani No'sh qishlog'ida istiqomat qiluvchi, diplomga ega bo'la turib, bir necha bor nohaqlikka uchrab, ish topa olmay yurgan oila boshlig'i masalasini mutasadidlarga bildirdi. Mutasaddilar shu yerning o'zidayoq masalanilari hal etishga kirishdi. Yaqin kunlarda ushbu fuqaro ish bilan ta'minlanishi va bu masala shu kunlarda hal etilishi bildirildi.

Gulruh MO'MINOVA.

# MERGANCHADAGI "YANGI O'ZBEKİSTON" da NIMA GAP?



20,5 milliard so'm bo'lgan 1680 o'rinni maktab, "7-sonli MKK" MCHJ pudratchiliqidagi 6,5 milliard so'm sarflangan 150 o'rinni MTM binosining qurilish-montaj ishlari yakunlanib, hozirda so'nggi pardozlash ishlari olib borilmoqda.

- Bolalar bog'chasi o'rnatilgan ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari tortishga ham katta ahamiyat berilm-oqda. Massividan 11 kilometr uzoqlikdagi G'ishtmasjid mahallasi huddida yangi suv oqova tozalash stansiyasi qurish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Ayni



paytda "Shohruh Temurbek" MCHJ ishchilarini tomonidan beshta suv qujudig'i kovalb o'rnatildi. Ming kub sig'imdag'i rezervuarlar o'rnatildi, 12 kilometr masofaga oqova tarmoqlari tortish ishlari olib borilmoqda.

- Loyihani qiyimi 26 milliard so'm bo'lgan mazkur qurilish-montaj ishlarning anchasi qismi bajarib qo'yildi, - deydi korxona ish boshqaruvchisi Jamshid Bobonov. - O'tgan yili 7 milliard so'mlik ishlar bajarilgan bo'lsa, joriy yilda rejadan biroz ortda qolymapmiz. O'tgan yili sentabr oyida ishga tushirilishi lozim bo'lgan loyihada o'zgarishlar qilindi. Masalan, rejadagi sig'imir o'rniqa diametri 800 mm bo'lgan quvular qo'yildi. Shuningdek, mablag' ajratish masalasida ham muammollarga duch kelindi. Hozirda barcha muammollar bartaraf etilib, ishimiz davom etmoqda. Qariyb 4 kilometr masofada qazish ishlari olib borilib, asosiy magistral quvurlari tashlandi. Ishni belgilangan muddatlarda yakuniga yetkazishga harakat qilamiz.

- Aholiga subsidiyalari ajratishdagi muammollar ham qurilish-tez muddatlarda tugatishga yo'l bermayotgan edi, - deydi tuman hokimligi bosh mutaxassisasi Asliddin Obloimuropov. - Endi ularni olish muddati cho'zilganligi sababli qurilish ishlari jadallahmoqda. Hozir yana 10 mingga yaqin aholi subsidiya mablag'larini orqali yangi uy olish uchun tayorligini bildirishmoqda.

Prezidentimizning taklifiga binoan joriy yilda boshlab foydalanan topshiriladigan barcha ko'p qavatlari uylarning tomlariga quyosh panellari va issiq sur'atizimi, ya'ni geokollektorlar o'rnatiligan bo'ldi. Bu esa yangi uylarga ko'chib o'tadigan aholining elektr energiyasidan bo'lgan muammollarin bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" massividan 6 ta 12 qavatlari, 11 ta 5 qavatlari uylardagi aholi istiqomat qilmoqda. Joriy yil yakuniga chora qazish xonadonlarga ko'chib o'tishadi. Buning uchun "Yangi O'zbekiston" massividida bonyodkorlik ishlarini olib borayotgan 30 dan ziyod qurilish korxonalarida barcha imkoniyatlar yetarli.

Dilmurod TO'XTAYEV,  
"Zarafshon" muxbiri.



## HUQUQIY MASLAHAT

### BOG'CHAGA TO'LNGAN TO'LOVLAR QAYTARILADI?

- Nevaram yaqinda shamollab qolib, 10 kuncha bog'chaga bora olmadi. Endi to'lovlarimizing nevaram bog'chaga bormagan davridagi 10 kunagini qaytarib olsak bo'ladimi yoki keyingi oy uchun saqlab qolinadimi?

O.NURMURATOV,  
Samarqand shahri.

- Bolaning bog'chaga ketma-ket 3 kundan ortiq kelmagan davri uchun to'lanchan to'lovlar keyingi to'lovlarini amalga oshirishda hisobga olinadi. Bunga bolaning yoki olla a'zolarining kasalligi, karantin holatida bo'lganligi, ota-onalardan birining ishdan (o'qishdan) bo'sh vaqt yoki boshqa sabablar misol bo'lishi mumkin.

Bunda bolaning kelmagan kunlari soni bir kunlik to'lov miqdoriga ko'paytirilib, keyingi to'lov summasi chiqqan summaga kamaytilriladi.

Agar bolaning kelmagan kunlari uchun to'lov amalga oshirilмаган bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdori u kelmagan kunlari uchun hisoblangan to'lov summasiga kamaytilriladi. Shuningdek, ota-onaning oldindan bergan yozma arizasiga asosan, bolaning bog'chaga qatnashi butunlay to'xtatilgan taqdirda, to'lov to'liq bo'lgan oy uchun, ya'ni bola amalda bog'chaga qatnagan kunlari uchun to'lanadi.

Bolaning yuda qolgan boshqa barcha hollari maktabgacha ta'lim tashkilotida bola ta'minot uchun to'lov umumiyo asoslarda to'lanadi.

Savolga Samarqand shahar DXM xodimi Hazrat MEYLIQULOV javob berdi.

### EMIZKLICKALAR BEPUL OVQAT BILAN TA'MINLANADI

- Iki oylik farzandim sog'lig'idagi muammollar sabab har oy shifoxonada davolanishga majbur. Oilaviy sharoitimiz og'rligi uchun dori-darmonga zo'rg'a pul yetkaziyapmiz. Eshitishimcha, emizkliki onalar bepul ovqat bilan ta'minlanishi kerak ekan, shu rostmi?

Shahoza BOBOTILLAYEVA,  
Samarqand tumani.

- Albatta, rost. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-fevraldagidagi 31-sonli qaroriga ko'ra, tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadigan shaxslar (bemorlar) toifalar ro'yxati tasdiqlangan.

Unga asosan, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar singari bir muayyan toyifadagi kishilar hamda 1 yoshgacha bolasi bo'lgan emizkliki onalar tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadi.

Bundan tashqari, OIV kasalligini yuqtirganlar, onkologik, ruyhiy, yuqumli, giyohvandlik, endokrinologik, nurlanish, moxov, sifilis, sil, shuningdek, shoshilchun tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida bemorlarning shifoxonada bo'lishi cheklangan muddatlarning tasdiqlangan standartlari bo'yicha reanimatsiya tadabirlarini va intensiv terapiyaning talab etuvchi kasalliklar va holatlar, darajasidan qat'i nazar, kamqonli kasalligining chaligan homilador ayollar va tuqqan ayollar ham mazkur imtiyozidan foydalish huquqiga ega.

Savolga viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi Nodira MIRMUHAMMEDOVA javob berdi.

Hanne KOLI:

## Finlandiya universitetlari ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan



bilan shug'ullanman. U yerda o'quvchilarini kuzatganman, bu yerda ham o'quvchilarini kuzatyapman. Aytishim mumkinki, O'zbekistonda savodxonlik darajasi deyarli 100 foiz, hamma o'qishni biladi. Texnik o'qish bo'yicha yuqori o'rinda, lekin ular qiziqish bildirishini qolay qiladi.

- Finlandiya-O'zbekiston pedagogika institutida ishni nimadan boshlamoqchisiz?

- Men bu yerda birinchi navbatda barcha xodim, professor-o'qituvchilar bilan uchrashdim. Dastlab ta'lim jarayonini yaxshilab o'rganib chiqishim kerak. Bu ishning birinchi qadami bo'ladi. Ikkinci qadam esa bu yerdagi ta'lim dasturlarini chiqur o'rganib, bizdagi ta'lim dasturlari bilan solishtirish, undagi o'xshashliklar, asosiy farqlari, qayerda tuzatish kerak bo'lsa, o'shani o'rganaman. Bu yerdagi o'qituvchilar Finlandiyadagi o'quv metodlariga juda qiziqish bildirishdi. Men bir nechta metodik qo'llamalarni olib kelganman. Instituditagi o'qituvchilar ulardan foydalanayti. O'qituvchilar yangi uslubiy o'quv llamalar yaratishiga ham qiziqish bildirishmoqda. Biz yangi ta'lim dasturlarini yaratamiz. Qisqa vaqt ichida katta maqsadni oldinmiza qo'yganimiz.

- Finlandiya ta'lim tizimi nimasi bilan taraqqiyotga erishgan?

- Ikkii davlatda ham deyarli o'xshash fanlar o'q'iladi. Bizning asosiy yutug'umiz o'quvchilariga qanday masalalar izlashni o'rnatamiz. Shuning uchun biz yuqori o'rnlardamiz. Men Navoiy viloyatida uch oy davomida maktab ta'lim

ganman. Shuning uchun Finlandiya ta'lim tizimini juda yaxshi bilaman.

- Finlandiya-O'zbekiston pedagogika instituti talabalarini kelajakda o'qishini Finlandiyada davom ettirishi mumkinmi?

- Hozircha bu institut va Finlandiyadagi olyi ta'lim muassasalarini bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomaga yoki memorandumlar yo'q. Lekin ba'zi kelishuv hujjatlari bor. Ana shu hujjatlari asosida Finlandiyada ta'lim olsa bo'ladi, ammo bu yerda o'qishni boshlab, u yerda davom ettirolmaydi. Finlandiyada boshidan boshlab o'qish imkoniyatini majjud.

Finlandiya olyi ta'lim muassasalarida xalqaro aloqalar yaxshi yo'Iga qo'yilgan.

Asosan Xitoy, Janubiy Osyo va Afrika davlatlari bilan hamkorlik majjud. Bundan keyin Markazi Osyo davlatlari bilan hamkorlik qilinadi.

- Finlandiyadagi olyi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi majjudmi?

- Finlandiyadagi kredit-modul tizimi O'zbekistondagidan anchaga farq qiladi. Bidza yil davomida 1600 soat bor, talabalar 60 balni qo'iga kiritishi kerak. 1 balni qo'iga kiritish uchun talaba 27, 50 soat o'qishi zarur. Bu tizim butun Yevropa bo'yicha bir xil. Masalan, Fransiyada talaba necha bo'lsa olsa, biz bila olamiz. Bolanya ta'lim tizimini 2004-yildan beri qo'llab kelmoqdamiz.

- Kelajakda Markazi Osiyodagi davlatlar ham Bolanya ta'lim tizimiga kira oladimi?

- Ha, albatta. Hozirda Yevropadagi davlatlar O'zbekistonga yordam berib kelmoqda, hamkorlik aloqalarini o'rnatmoqda. Avvalo, bu tizimni o'rganish kerak. Boshida juda qiyin tuyuladi, amma o'rgansa, juda ham oson. Bolanya jarayonining eng qiyin qismi o'qituvchilarga bu tizimni o'rgatish. O'qituvchilar jarayoni o'zlarini yaxshi tushummasa, o'quvchilariga uni tushuntirib berolmaydi. Bu malakaga asoslangan ta'lim tizimidir. O'zbekistonda fanlarga yo'naltirilgan ta'lim berilgan, endi ta'limni malakaga yo'naltirish bir muncha qiyinchilik tug'diradi.

Xurshida ERNAZAROVA  
suhbatlashdi.

# Sobir Rahimov diviziyasi jangchisi

Usmon Eshbekov uy-muzeysi sayohat qilindi

Ishtixon tumani Tallak qishlog'ida joylashgan Usmon Eshbekov uy-muzeysi sayohat qilindi. Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkil etilgan uchrasuvuga shoir va yozuvchilar hamda harbiylar taklif etildi.

Usmon Eshbek 1941-yilgacha Oqdary tumanidagi Oyptomol qishlog'ida maktab o'qituvchisi bo'lgan. Ikkinci jahon urushi boshlangach, Eshbek otaning to'rt o'g'ilis Sunnatilla, Ormon, Ismon va endigina 19 yoshni qarshilayotgan Usmon Eshbekov jangga otlangan. Ko'p o'tmay, Sunnatilla va Omndonan qora xat keldi...

Usmon Eshbekov Sobir Rahimov qo'mondonlik qilayotgan 37-gvardiyachi o'qchi diviziyasi tarkibida jang qildi. 1944-yil boshlarida Usmon jangda yarador bo'ldi. O'sha kezlar Oly shok qo'mondonning buyrug'i binoan urush nogironi bo'lgan o'qituvchilar zahiraga bo'shatilib, ular zimmasiga tezda maktablarni qaytadan ochish vazifasi yuklatildi.

Usmon Eshbekov urushdan nogiron bo'lib kelgan paytida ularning Tallak qishlog'i Oqdaryodan Ishtixon tumani tarkibiga o'tkazilgan edi. Shu tariqa bu qishloqda ham maktab ochish zarurati paydo bo'ldi. O'z davringin il'or yozilishi Tallak qishlog'ida hozirgi 7-o'rta maktabni bunyod etishda va urush tufayli to'xtab qolgan ta'llin sohasini yo'iga qo'yishda faoliyk ko'rsatdi. 1960-yillargacha kechki maktabda dars berib, kunduzi xo'jalik ishlarda mehnat qildi.

Usmon Eshbekovning umr yo'ldoshni



Ursand Normatova uy bog'chasi tashkil etib, uzoq yillarda qishloqda dalaga chiqadigan ayollarning yosh bolalarini parvarish qildi. O'zi 10 nafr farzandini voyaga yetkazib, "Qaharonan" unvoniga ega bo'ldi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan "1941-1945: O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shang hisasi" kitob-albomida Usmon Eshbekovning "Biz Rahimovichlar edik" sarlavhalai maqolasi surʼati bilan kiritildi.

O'tgan yili Usmon Eshbekov tavalludiga 100 yil to'lishi munosabati bilan Ishtixon tumani Tallak qishlog'ida u yashagan xonadonda uy-muzeley tashkil etildi. Muzeydan jangchining harbiy formasi, olgan unvon, medallari, suratlari va kitoblar joy olgan.

Hatto oilavli shajarasini, o'sha davr ruhini aks ettiruvchi ro'zg'or buyumlari ham bor.

Tadbirga yig'ilganlar jangchi va uning oиласи haqida iliq gaplarni aytidi. Ayniqsa, Usmon Eshbekovning o'g'il, filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Yozuvchilar uyusishma-si va Jurnalistlar uyushmasi a'zosi To'iqin Eshbekning xizmatlarini e'tirof etishdi.

- To'g'risi, ko'p shahar, tumanlarda

mehnat qildim, ammo otasining xotirasini yod etib, uy-muzeley tashkil etilganini Ishtixon tumaniga kelib ko'rdim, - dedi tuman hokimi Fazliddin Ro'ziyev. - Uy-muzeyni ko'rib, havas qildim va uyimda shunday uy-muzeley tashkil etishni niyat qildim. Kelajak avlod bobosini kim bo'lgan, otasi kim bo'lgan, ular qanday ishlarni bajarganini bilishi kerak. Tarixini bilgan millat o'zligini unutmaydi.

Tadbir Samarcand markaziy harbiy okruji harbiylari tomonidan qilingan chiqishlar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi va tuman hokimligi tomonidan uy-muzeley tashkil etildi. Muzeydan jangchining harbiy formasi, olgan unvon, qiliindi.

O'z muxbirimiz.

**Har bir inson hayotida ota-onasi, oila a'zolari singari qadrli kishilar bo'ladiki, ularning o'rnini hech kim bosolmaydi. Ularning siz uchun qilgan xizmatlari shunchalik katta bo'ladiki, uni qiyoslab, baholab bo'lmaydi.**

## AKAMDEK USTOZIM EDI

Men uchun, men bilgan ko'pchilik veterinalar, turli soha kishilari uchun Abbas aka ana shunday benizir inson, bag'rikeng ustoz, qo'li oqich qaka, samimiy do'st edi.

Butun umri, ish faoliyati Samarcand shahridagi Siyob dehqon bozori veterinariya, sanitariya-ekspertiza laboratoriysi bilan bog'liq bo'lgan ustozimiz dun-yoga mashruh ushbu bozorning shuhratini oshirish, sotuvchi va xaridorlar uchun qulay sharoit tarishiga intilib mehnat qildi. U kishining bu boradagi xizmatlari bozorga rahbarlik qilganlarnikidan ortiq bo'lsa ortiqki, aslo kam emas. Buni bozor ma'muriyati ham, shahar jamoatchiligi ham yaxshi biladi.

Abbos akam Samarcand tumanining Pulimug'ob qishlog'ida ma'rifatli oilda tug'ilish o'sgan. Dastlab zooveterinariya texnikumini, so'ngra qishloq xo'jalik institutini veteran mutaxassisligi bo'yicha bitirgan. Bir muddat kushxonada ishlachagi, 1978-yildan boshlab Siyob dehqon bozori qoshidagi veterinariya, sanitariya-ekspertiza laboratoriyasida faoliyat olib bordi, laboratoriya raahbarliq qildi.

Men shu laboratoriya ishga kelib, u kishining raahbarligida mehnat qilib, nafaqat ish bo'yicha, balki hayot sabog'i ham olgarmagan. Sohaning ilmiy tonomlari, nazarayini o'rganish kerak, albatta.

Ammo o'rganganlarining amaliyotda qo'llashni bilmasang, bunday bilimning kimga keragi bor. Abbas aka bizga aynan amaliyotni o'rgatgan, sotuvchi va xaridorlar bilan muomala qilishda barchamizga ibrat bo'lgan. Bozorda tabiiyki, turfa fe'lli kishilar uchraydi - birov jizzaki, birov gap ko'tarmaydi, o'z bilgandan qolmaydigan sotuvchi, iniqj xaridor. Abbas aka har qanday holatda ham sotuvchi va xaridor bilan til topishib, ularni rozi qilgan holda murosaga keltiradi, o'z talabini qo'yib, bozorda tartib o'rnatadi.



Hozir ayrim rahbarlar, qiziqqon yoshlarni ko'rsam, Abbas akanan ana shu fazilatlarini yodga olaman.

Laboratoriya har yili texnikum va institutdan talabalar amaliyotga kelardi. Ko'p joylarda amaliyotga yuborilgan talabalarga hech narsa o'rgatilmas, shunchaki qo'ziga qo'l qo'yib berib yuboriladi. Bizda esa Abbas aka har bir talaba bilan subhatalashib, ularni xodimlarga birkirtilib qo'yardi, keyin tez-tez ular bilan savol-javob qilib, nima o'rgananini so'rab turardi. Hech bir talaba e'tibordan chetda qolmasdi. Keyin ular orasidan eng bilmili, harakatchan yigit-qizlarni ishga olib qolar yoki shahardagi boshqa bozorlardagi laboratoriyalarda ishslashga taklif qildi. Hozir Samarcanddagi istalgan bozorga borib ko'ring, albatta, u yerda Abbas Murtagoyevning sabog'i olni shogirdlari yoki u kishining tavsiyasi bilan ishga qabul qilingan mutaxassislarini ko'rishningiz mumkin. Abbas aka ko'p kitob, gazeta-jurnal o'qishi sababli talabalar va baxidan ham nima o'qiyotanimizni so'radi. Ziyorilar, ijodkorlar bilan suhbatalashishni, ma'rify davralarni xush ko'rardi. Stolida doim gazeta va jurnallar, yangi kitoblar bo'lardi. Taqdir bizni ana shunday inson bilan yuzlashtirgani, u bilan yonma-yon ishslash baxtini berganiga shukrona aytamiz.

Afsuski, Abbas akam uzoq hayot kechirmadilar. 2011-yilda, 62 yoshlarida bu fony dunyonni tark etdilar. Lekin biz har gal laboratoriya qirganimizda, bozorga borganimizda ustozimiz bizni kilib qarshi olayotgandek bo'ladi. U kishining ruhi bizga madad kor bo'layotganini har kuni, har lahiba qilib turamiz.

Rafiq HOTAMOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi OCHIQ MA'RUDA O'TKAZADI**

Mavzu: "Breast-feeding";

Ma'ruzachi: t.f.n. dotsent v.b Shadiyeva X.N;

Sana: 10.05.2023-yil, soat 11:10 da;

O'tkazish joyi: SamDTU bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali;

Taklif etilganlar: Xalqaro ta'lim fakulteti 325-328-guruh talabalar, kafedralar va dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistrler.

Kafedra mudiri, t.f.d. dotsent Rabbimova D.T.

### QUTLAYMIZ!

O'zbekiston "Veteran" jangchi-faxriy va nogironlar birlashmasi viloyat bo'limi a'zolari urush faxriysi Shavkat Boyxo'rozonov tug'ilgan kuni bilan qutlaydi.

1986-1988-yillarda Afg'onistonda baynalman burchini o'tagan Sh.Boyxo'rozon jamiyatining faoliyati a'zolariдан bo'lib, birlashmamizning viloyat bo'limida tashkil etilgan bayram va tadbirlarda muntazam ishtiroy etib keladi. Shuningdek, u viloyat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i sifatida yoshlarni kuchli, mard va jasur hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Biz barcha quroldosh do'stlari nomidan Shavkat Boyxo'rozonova uzoq umr, sihat-salomatlik, mehnat faoliyatida omad tilab qolamiz.



### DA'VOLAR BO'LSA...

Urgut tumanidagi "BAROT HOMIDOV SAVDOK SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 301327532) o'z ustav fondini 17 034 469 (o'n yetti million o'tiz to'rt ming to'rt yuz oltimish to'qqiz) so'mdan 14 460 000 (o'n to'rt million to'rt yuz oltimish ming) so'mga kamaytirmoqda. Shu munosabati bilan unga bildirilagan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil:** Urgut tumani Do'stik mahallasi, Pochvon ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Iskandarov Ermat Alimkulovichga (2020-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Arifov Murtagazkulga (1977-yil 22-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Razakov Razakovichga (2020-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raximov Baturqa (2019-yil 22-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raximov Baturqa (2019-yil 22-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

## ABITURIYENTLAR DIQQATIGA!

**SAMARKAND INTERNATIONAL UNIVERSITY OF TECHNOLOGY**

**SAMARQAND XALQARO TEKNOLOGIYA UNIVERSITETI HUJJATLAR QABULINI BOSHLADI.**



**Hujjalarni www.siut.uz sayti orqali topshirishingiz mumkin. Siz o'rta ta'limdi bitirganlik haqidagi hujjalarni olguningizga qadar o'zingiz tahsil olayotgan muassasaning (maktab, kollej yoki litsey) bitiruvchisi ekanligingizni tasdiqlovchi ma'lumotnomani tizimga yuklashingiz mumkin.**

**MUHANDISLIK:** - "Geologiya va geomuhandislik"; - "Konchilik ishi"; - "Kimyo muhandisligi"; - "Neft va gaz muhandisligi"; - "Axborot texnologiyalari".

**KOREYA TEKNOLOGIYASI VA MADANIYATI KOLLEJI:** - "Yashil texnologiyalar" (qayta tiklanadigan energiya manbalari); - "Dizayn"; - "Raqamli iqtisodiyot".

**TADBIRKORLIK:** - "Tadbirkorlik va menejment"; - "Xalqaro logistika".

### TA'LIM INGLIZ TILIDA OLIB BORILADI

+99855-705-50-05, +99897-575-48-29

Telegram ([http://t.me/siut\\_uz](http://t.me/siut_uz)) Facebook (<https://facebook.com/siut.uz>) Instagram (<https://instagram.com/siut.uz>) Sayt (<http://www.siut.uz>)

Zuxraga (2021-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramaziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Obidova Saboatga (2018-yil 24-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabati bilan merosxo'r'larining Nurqosimov Ramaziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Saydova Gulorom Otakulov

# MIRZO ULUG'BEK TIMSOLIDA OLIMLIK SIYRATI

Movarounnahrni qirq yil boshqargan hukmdor, qomusiy bilim sohibi Mirzo Ulug'bek kamtarin olim bo'lgan. Alloma o'zining to'rt kitobdan iborat hamda 30 yillik ilmiy tadqiqotlari samarasi bo'lgan ulkan hajmdagi "Ziji Ko'raroniy" asarining kirish qismida shunday deydi: "Yulduzlarning ahvoldan kuzatilgan va imtihon bilan ma'lum bo'lgan jam'iki narsalar ushbu to'rt maqoladan iborat kitobga kiritilib, subut tutildi".

Olim to'rtta kitobdan iborat yirik hajmdagi asarni to'rtta maqola deb ta'kidlamoqda. Fundamental ilmiy tadqiqot bo'lgan bu asarning birinchi kitobi yil hisobi, kunlar, soatlar, turli xalqlarda kun boshini aniqlash odatlari, qadimgi turklarda muchal hisobi bo'yicha vaqt o'chovi, Turkiston va Xitoydagidagi vaqt o'chovi masalalari, xalqlarning mashhur kuniari va bayramlari haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi. "Ziji"ning ikkinchi kitobi matematika, sferik astronomiya, matematik geografiya hamda ilmi nujumga bag'ishlanadi. Shaharlarning nomlari va geografik koordinatalardan iborat geografik va trigonometrik jadvallar ham shu kitobda keltirilgan. Asarning uchinchi kitobi astronomiyaning asosiy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda sayyoralar harakati po'zg'almas yulduzlar xaqidagi mulohazalar bayon etiladi. "Ziji" asosiy mag'zini ham shu kitob tashkil etadi. Unda sayyoralar harakati jadvali va yulduzlar katalogi Ulug'bekning rasadxonadagi 30 yillik uzluskiz kuzatishlari natijasi bo'lib, ular aniq matematik qoidalarga asoslangan. Asarning to'rtinchisi kitobi astrologiyaga bag'ishlangan. Ko'rinish turibdiki, bu asar katta amaliy ahamiyat kasb etgan fundamental tadqiqotning natija va xulosalaridan iborat.

"Ziji"ning uchinchi kitobida trigonometrik jadvallar berilgan bo'lib, unda sinuslar va tangenslar o'nta o'nlik xona aniqlikda kiritilgan. Mutaxassislar XV asr uchun bu natija juda katta aniqlik, deb e'tirof etadi. Olim ekliptikaning ekvatoriga og'maligini hisoblashda o'zidan oldingi barcha olimlardan ko'ra aniqroq natijaga erishgan.

Takabburlik, mammalik hamma vaqt ilm kishilar uchun illat sanaladi. Olimning kamtarligini hukmdor Mirzo Ulug'bek simosida ko'rish mumkin. Yirik bir davlat hukmdori va ayni damda zahmatkash tadqiqotchi va



qomusiy bilim sohibining kamtarligi hozirgi zamon olimlari uchun ham namuna. Mirzo Ulug'bekning astronomiya sohasida olib borgan tadqiqotlarning aniqlik darajasini bugungi kompyuter elektron hisoblar bilan deyarli aynanligi xalqaro miqyosda tan olingan. Olib borilgan tadqiqot natijalaridagi shunchalik aniqlik darajasiga qaramasdan, buyuk olim o'zining asarida agar xato o'tgan bo'lsa, o'quvchidan o'tinchisini birligini aytdi: "Agarda nimarsa tuzatish va yaxshilash haddidan chetlashgan bo'lsa, uni afv libosining etagi birla yopsalar va uzr etsalar, ammo koymasalar". Vaholanki, fan tarixida eng ko'p murojaat etilgan, sharhlari bitilgan asarlardan bira ham Mirzo Ulug'bekning "Ziji"dir.

Muhammad Xorazmiyning "Al-jabr val muqabala", Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarlar Sharq va G'arb ilm-fani rivojida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, Mirzo Ulug'bekning "Ziji" ham astronomiya, matematika va trigonometriya fanlari rivojida besh asr mobaynida eng mukammal nazarayi va amaliy manba bo'lib xizmat qildi.

Akram AZIZQULOV,  
SamSI dotsenti.

## Qadimiylar hoshiyasida nega ko'proq joy qoldirilgan?

Qog'oz nashr mahsulotlarining asosiy xomashyosi sanaladi. Qog'oz haqida ko'pchilikka noma'lum qiziqarli faktlar ham mavjud. Masalan, qog'oz og'irligi. Qog'oz og'irligi bu juda muhim tanlov. Chunki agar biz to'g'ri bo'lgan og'irlik bilan nashr mahsulotlarini bosib chiqarsak, jarayonning yakuniy holati o'ylaganimizdek chiqmasligi mumkin. Shuning uchun bosmoqchi bo'lgan narsamizga qarab turli gramlardan foydalananamiz. Jumladan, gazetalarda 40-60 gramgacha bo'lgan og'irlikdagi qog'ozlar ishlataladi. 80-100 gramgacha: bu kundalik turmushta keng qo'llaniladigan va eng keng tarqalgan qog'oz turi sanaladi. 90-170 gramgacha: asosan risola va plakatlar uchun mo'ljalangan. 200-250 gramli qog'ozni jurnallarda uchratamiz. 350-450 gramli qog'oz deyarli karton qog'ozdir. Biz bularni kitob muqovalarida kuzatamiz.

Qog'oz haqida so'z yuritar ekanimiz, beixiyor Samarqand qog'ozini yodimizga tushadi. Xo'sh, bugungi kunda ham Samarqand qog'oziga bo'lgan talab o'z kuchidamid?

Samarqanda qog'oz ishlab chiqarishning vujudga kelishi Talas vodiyisidagi 751-yilgi bosqinchilik bilan bog'liq. Samarqand hokimi Abu

Muslim Xitoy bosqinchilariga qarshi yurish boshlaydi va bosqinchilaridan bir necha kishini asir oladi. Xitoy jangchilarini orasida hunarmandlari ham bo'lib, keyinchanlik ular tirkchilik maqsadida mahalliy aholiga qog'oz ishlab chiqarishni o'rgatadi. Shu tarqa Samarqanda qog'oz ishlab chiqarish yuzaga keladi.

"Samarqand Sultan qog'oz" o'zining sililiqligi va yuqraligi bilan boshqa qog'ozlardan ajralib tursa, "Samarqand shoyi" qog'oz siyat jihatidani undan qolishmasa-da, rangi och sariq, ya'ni novrot rangda bo'ladi. Shu tarqa Samarqand Sultan qog'oz" deb nomlanishi ayrim tadqiqotchilar tannarx jihatidani qimmatligi bois uni faqat sul-



ton xonadoniga mansub yoki aholining o'ziga to'q qatlami sotib olgani bilan bog'laydilar. Haqiqatan ham Samarqand qog'ozining bu navi Buyuk Ipak yo'lda ayriboshlangan mollar ichida eng qimmatbaho, shuruhur bo'lgan. Buni mashhu fors kalligrafi Sultonali Mashhadining faqatgina Samarqand qog'ozida ijd qilishni tashviya etganida ham ko'rishimiz mumkin.

Samarqand qog'ozining o'ziga xos jihatlaridan biri – u suvda butkul ivib ketmaydi va yong'in vaqtida to'liq yonib kul bo'lmaydi. Shuning uchun qadimiy kitob va qo'lyozmalarining hoshiyasida birmuncha ko'proq joy qoldirilgan. Sababi o't ketgan vaqtida qog'ozning faqat chetlari kuyib,

golgan qismi o'z holicha saqlangan. Bundan tashqari, mazkur qog'ozga kemiruvchilar ham shikast yetkazmagan. Chunki u tut daraxti po'stlog'idan qilinganligi uchun hazm qilish jada qiyin hisoblangan.

Ana shu xususiyatlari uchun ham Samarqand qog'ozini bugungi kunda ham dunyo e'tiborini o'ziga jaib etib kelmoqda. Bugun Samarqand tumanidagi Konigil qishlog'ida Samarqand qog'ozini hunarmandlar tomonidan o'sha an'analarni saqlagan holda ishlab chiqarilayotgani tahsinga loyiq.

Farangiz BOZOROVA,  
Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi.

## Men anglagan haqiqat

\* Isrofgarchilik saxiylik hisoblanmaydi. Ammo tejamli bo'lish yaxshilik alomati.

\* "Yegandan qo'riq, to'plagandan emas", deyishadi. Chunki yeganni to'ydirib bo'lmaydi, to'plagan olib ketolmaydi.

\* Qadimgilar so'za baxil, mol-dunyoga saxiy bo'lishgan. Sababi, ular saxiylikni savob bilishgan. Bugungilar esa aksincha, so'za chechan, saxiylikda xasislik qilishadi.

\* Nafsning quliga aylaniganlar uyat, or-nomus, degan tushunchalar bilishmaydi, har qadamda badnafsligini sezdirib qo'yadi. Aslida barcha illatlarning onasi nafs balosi.

\* Haddan tashqari boylikka ruju qo'yish yaxshilikka olib kelmaydi. Ehtiyoja yarasha topilgan boylik eng yaxshi boylikdir.

\* Ba'zi odamlar mansab pillapoyasidan yuqori ko'tarilgan sari oyog ostini ko'ramay qolishadi. Ularga «Hoy, oyog'ing ostida odam bor», deb ogohlantirib turish kerak.

\* Ba'zi ota-onalar "Boram menga qaramaydi, bemehr

bo'lib qolgan, hurmat qilmaydi», deb nolishadi. Ammo ular o'zlariga «Bolamga mehr berdimmi? Yaxshi tarbiya qiloldimmi?», degan savollarni bera olsa, javob oyindinlashadi.

\* Inson aqlli bo'lib tug'ilmaydi. Lekin ayrimlarda qobiliyat tug'ma keladi. Faqat uni o'z vaqtida sezib, rivojlantirish lozim.

\* Umr yashash uchun emas, yaratish uchun berilgan. Shunday yashashki, sizdan yaxshilliklar qolsin, musibatdan himkat izlang, mashaqqatdan ibrat.

\* Ijad - inson qalbining mevusi. U inson orzu-umidlarini turmushtar taroq'da tarashlaydi va sayqal berib, hayotga tatbiq etadi. Shuning uchun har bir ishga ijodiy yondashangiz, kam bo'lmaysiz.

\* Baxt – bu kurash degani. Chunki inson o'zi bilan o'zi kurashib yashaydi, o'z yo'lini o'zi tozalab, baxt topadi.

Chori QO'NGIROV, mehnat faxriysi.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

5-MAY

Narziqul YAVQOCHEV – 1947-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchi.

Iso ABDURAHMONOV – 1938-yilda tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Rahmonqul ORZIBEKOV – (1931-2011) Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

Sharif AKRAMOV – (1913-1982) Samarqand shahrida tug'ilgan. Bastakor va shoir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

Muslihiddin MUHIDDINOV – 1945-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

Hasan MUSAYEV – (1950-2020) Toshkent viloyati Yangiyer (huzirgi Sirdaryo viloyatining Boyovut) tumanida tug'ilgan. Iqtisod fanlari doktori, professor.

- 7-sinfligimda Toyloq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga kelganman, - deydi To'rak.

- 2013-yilda trenerim Valijon Jonxo'rov oz qo'l ostida yunon-rum kurashi bo'yicha ilk marfa O'zbekiston championi bo'lib, termal jamaoga qabul qilinganman.

Shundan so'ng bir necha marta O'zbekiston championati va kubogi bahsleri g'olib, 2018-yilda Qozog'istonda o'tkazilgan

musobaqada Osiyo championi bo'ldim. 2019-yilda esa Qirg'izistonda Osiyo championi va Gretsiyada o'tkazilgan jahon championati g'olibligini qo'iga kiritdim.

Hozir Parij-2024 olimpiadasiga tayyorlarigidagi ko'ryapman va olimpiada championligini qo'iga kiritishni maqsad qilgaman.

F.FAXRIDINOV.

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 637 nusxada chop etildi. Buyurtma . Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshehba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahfalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**


**Navbatchi:**

**G.MO'MINOVA.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**

ISSN-201667X



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling  
Sotuvda narxi kelishilgan holda